
“E-QAROR” TIZIMIDA ILK BUYRUQ ADLIYA VAZIRLIGI TOMONIDAN QABUL QILINDI



#Adliya_xabari #e_qaror

“E-qaror” tizimida ilk buyruq Adliya vazirligi tomonidan qabul qilindi

Jamoatchilikka ma'lumki, 2021 yil 1 iyuldan boshlab “E-qaror” elektron tizimi orqali hokimliklarning qarorlari qabul qilib kelinmoqda. Bugungi kunda ushbu tizim jamoatchilik nazorati uchun samarali mexanizmlardan biriga aylandi.

Joriy yilning 1 yanvaridan boshlab Prezident qaroriga asosan sinov tariqasida Adliya vazirligining buyruqlari ham “E-qaror” orqali qabul qilinishi belgilangan.

Shunga ko'ra Adliya vazirligi tizimida idoraviy hujjatlarni “E-qaror” elektron tizimi orqali qabul qilish va e'lon qilish boshlandi.

Kuni kecha tizim orqali qabul qilingan Adliya vazirining dastlabki buyrug'ida vazirlikning 2023 yil uchun sarf-xarajatlar smetasini maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) kesimidagi shakllantirish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Qarorga muvofiq Adliya vazirligi tizimidagi sinov natijalariga ko'ra 2023 yil 1 sentyabrdan boshlab barcha respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari buyruq, qaror va farmoyishlarni “E-qaror” elektron tizimi orqali qabul qilish va e'lon qilishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasi ishlab chiqiladi.

Vazirlik va idoralarning ma'muriy hujjatlarini jamoatchilik uchun ochiq tarzda qabul qilinishi ular faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatishga xizmat qiladi.

Adliya vazirligi OAV, jurnalistlar va blogerlarni jamoatchilik nazoratini o'rnatishdagi faolliklarini qo'llab quvvatlaydi hamda bu borada qonun ustuvorligini ta'minlashda ularning ko'magiga suyanadi.

Muxtorali Saidaxmatov - So'x tumani Adliya bulimi Davlat xizmatlari markazi direktori

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-19 18:07:10